

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(52 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(52 KB\)](#)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2015 yil 6 apreldagi 82-son Qarori

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Qarori

«Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida»gi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qonunlariga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 mart kungi 73-sonli “Davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 mart kungi 73-sonli “Davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Namunaviy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Vazirliklar va idoralar, shahar va tumanlar hokimliklari bir oy muddatda:

ushbu qaror bilan tasdiqlangan Namunaviy nizom asosida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni ishlab chiqsinlar va tasdiqlasinsin;

o‘zlarining normativ-huquqiy hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi

B.Yangibaev

Ko‘rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)